

**BYUDJET TASHKILOTLARI BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR BO‘YICHA
MOLIYAVIY AKTIVLAR NAZORATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

Isoqov Abrorjon

Toshkent moliya instituti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha moliyaviy aktivlar nazoratining asosiy yo‘nalishlari, dastlabki nazorat, joriy nazorat, keyingi nazorat turlari, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, byudjet hisobi, hisoboti va nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganilgan.

Kalit so‘z va iboralar: byudjet, mablag‘, moliyaviy aktivlar, dastlabki nazorat, joriy nazorat, keyingi nazorat turlari, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, byudjet hisobi, hisoboti.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarida pul mablag‘lari hisobi byudjet (byudjet tomonidan muassasa xarajatlarini va boshqa tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan) va byudjetdan tashqari (ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov kontrakt shakli, rivojlantirish jamg‘armasi, boshqa mahsus mablag‘lar, byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan byudjet tashkilotlari xodimlarining ijtimoiy to‘lovlarini qoplash uchun kelib tushgan, chet el valyutasidagi) bo‘yicha yuritiladi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari Davlat byudjeti g‘azna ijrosiga o‘tishi munosabati bilan xizmat ko‘rsatuvchi banklarda ochilgan byudjet, byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha hisob schyotlari yopilib G‘aznachilik va uning xududiy bo‘limlaridagi ochilgan shaxsiy hisob varaqlarga o‘tkazildi. Natijada G‘aznachilik va uning xududiy bo‘limlari tomonidan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarini yuridik va moliyaviy majburiyatlari ro‘yhatga olinib yagona g‘azna hisob raqamidan to‘lab berilmoqda.

Byudjet ijrosi jarayonida Davlat byudjeti mablag‘lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari shakllanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Byudjet mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanish, byudjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat byudjeti olchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni taminlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad

etib bolmaydigan haqiqat⁴³”- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida. Byudjet tashkilotlari byudjet mablaglarining asosiy istemolchisi hisoblanib, davlat byudjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida byudjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, byudjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq byudjetdan tashqari mablag‘lar yuzasidan tashkil bo‘lish manbalari va foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so‘nggi natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, byudjetning g‘azna ijrosiga o‘tilishi, o‘rta muddatli byudjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda byudjet siyosatidagi boshqa ozgarishlarning amalga oshirilishi byudjet tashkilotlarida o‘z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, byudjetdan tashqari mablag‘larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Muhammadyoqub Ostonaqulovning fikricha, byudjet tashkiloti-bu zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratishni nazarda tutilgan va bu mablag‘ni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan davlat tashkilotidir. Byudjet tashkilotlariga davlat tashkilotlari, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, maktablar, maktab-internatlar, kollejlari, liseylar, shifoxonalar, poliklinikalar, bolalar bog‘chalari, bolalar yashilari va boshqalar kiradi⁴⁴.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.K.Ibragimov, S.U.Mehmonov, M.Ostonaqulov, A.J.To‘ychiyev, Sh.B.G‘aniyev, B.K.Xamdamlarning asarlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, byudjet hisobi, hisoboti va nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganilgan.

Dastlabki nazorat – Byudjet tizimida reja, dastur va smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida byudjet intizomiga rioya qilinishi shuningdek, qonunchilik talablari buzilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat – Byudjet ijrosi jarayonida maxsus organlar tomonidan tezkor amalga oshirilib, sodir bo‘lgan muomalalarini qonuniyligi, pul mablag‘larini oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo‘yicha hisob ma‘lumotlarini haqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi. Masalan buxgalteriya hisobining asosiy

⁴³ Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасидан, 28.12.2018 йил, <https://president.uz/>

⁴⁴ Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет кодекси” 26 декабрь 2013 йил, ЎРҚ 360 – сонли қонуни билан тасдиқланган, <http://www.lex.uz>.

funksiyalaridan biri nazorat bo'lib, ko'p jihatdan buxgalteriya hisobi tuzilmasini to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq.

Keyingi nazorat – bu o'tgan moliya davridagi zarur hisob va hisobot axborotlarining qonuniyligini, byudjet intizomiga rioya qilinganligini aniqlash va faoliyat natijalarini umumlashtirish uchun amalga oshiriladi. Bunda byudjet tashkiloti faoliyatini kompleks taftish qilinishi yoki moliyaviy audit o'tkazilishi mumkin.

M.Ostonaqulovning tahlil qilishicha “Byudjet tizimining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan budjet daromadlarining xarajatlarga teng bo'lishi ta'minlanishi kerak. Byudjetlarni tuzish va tasdiqlash jarayonida byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar paydo bo'ladi. Shuningdek, tasdiqlangan byudjetlarning bajarilishi jarayonida ham byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar paydo bo'lishi mumkin. Demak, byudjetlararo hisob-kitoblar ikki turga bo'linadi. Byudjetlarni tuzish va tasdiqlash mobaynida, moddiy-texnika bazalari bir xil bo'lmaganligi uchun, byudjetlarning ayrimlarida daromadlari rejalashtirilayotgan xarajatlaridan ortiqcha bo'lsa, boshqalarida esa rejalashtirilayotgan xarajatlari summasi rejalashtirilayotgan byudjet daromadlaridan oshib ketishi kuzatiladi.

Byudjet ijrosi jarayonida nazoratning maqsadi – byudjet ijrosini amalga oshirish va natijalarini shakllantirishni haqqoniyligini aniqlash va tahliliy axborotlarni shakllantirishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1.Byudjet daromadlari va xarajatlarining rejalashtirilishi hamda uning ma'lumotlari haqqoniyligini aniqlash;

2.Byudjet ijrosi jarayonida muomalalarni to'liq va to'g'ri hujjatlashtirilishini aniqlash;

3.Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari va harajatlarini rejalashtirish hamda ushbu ma'lumotlarning haqqoniyligini aniqlash;

4.Byudjet ijrosi jarayonida buxgalteriya hisob hisobvaraqlarini yuritilish holati va haraktini to'g'riligini aniqlash;

5.Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirilishi va natijalarni shakllantirilishi to'g'riligini tekshirish;

6.Mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirilishini tekshirish;

7.Byudjet ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini to'g'ri umumlashtirilishi va hisobtlarni haqqoniyligini tekshirish;

8.Tekshiruv natijalarini umumlashtirish.

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzishdan oldin tashkilotlar:

- hisobot choragi mobaynidagi faoliyat turiga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishga, vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishga, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga ko'rsatilayotgan homiylik yordamlarga, shuningdek, hisobot choragining oxirgi ish kunida tejab qolingan byudjet mablag'lariga doir dastlabki hujjatlarni to'liqligini;

- hisob raqamidan olingan ko'chirmalarni va tegishli hisob registrlari ma'lumotlarini to'g'riligini tekshirib chiqadilar.

Byudjet tashkilotlari yuqorida keltirilgan manbalar bo'yicha hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritadi. Ya'ni har bir manba bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlar belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan ochiladi va g'azna dasturiga kiritiladi.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek budjetdan tashqari mablag'larning kassa xarajatlari kelib tushgan budjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiriladi va byudjet mablag'lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi.

Byudjet tasdiqlangandan so'ng davlat va mahalliy soliqlar va daromadlar to'g'risida, ma'muriy-xududiy bo'linishdagi, korxonalar, tashkilotlar va xo'jalik birlashmalarining bo'ysunishidagi o'zgarishlar, turli xildagi bo'ysunishdagi qurilish ob'yektlari o'rtasida kapital qo'yilmalar limitlarini qaytadan taqsimlashdagi o'zgarishlar bo'yicha qabul qilingan yangi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari qabul qilinishi natijasida alohida olingan byudjetlarga o'zgartirishlar kiritilgan hollarda byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keladigan byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha muomalalar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Президента Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасидан, 28.12.2018 йил, <https://president.uz/>
2. Н.И.Қўзиёв, Ш.В.Фаниев, А.С.Рамазонов. Бюджет ҳисоби ва назорати: Дарслик Т "Нихол принт" 2022
3. Ўзбекистон Республикасининг "Бюджет кодекси" 26 декабрь 2013 йил, ЎРҚ 360 – сонли қонуни билан тасдиқланган, [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).